

SHARQ ALLOMALARINING PEDAGOGIK QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Namangan viloyati Chortoq tuman 24-maktab

Turayeva Saida Adxamjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq allomalarining pedagogik qarashlari hamda ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy va Ahmad Donish kabi mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari, ilm-ma'rifat va odob-axloq uyg'unligiga oid qarashlari yoritilgan. Shuningdek, bu qarashlarning bugungi ta'lim tizimidagi o'rni va ularni qo'llash imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sharq allomalari, pedagogik qarashlar, zamonaviy ta'lim, komil inson tarbiyasi, ilm-ma'rifat, odob-axloq.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические взгляды восточных учёных и их значение в современном образовательном процессе. Раскрыты идеи АлФараби, Ибн Сины, Бируни, Навои и Ахмада Дониша о воспитании, науке и нравственности. Также показано, как данные педагогические концепции могут быть использованы в системе современного образования.

Ключевые слова: восточные учёные, педагогические взгляды, современное образование, воспитание совершенного человека, наука, нравственность.

Абстракт: Тҳис артисле эхаминес тҳе педагогисал виевс оф Эастерн счоларс андтҳеир сигнифисансе ин модерн эдусатион. Ит ҳигҳлигҳтс тҳе эдусатионал идеас оф Ал-Фараби, Ибн Sina,

Beruni, Navoi, and Ahmad Donish, emphasizing the unity of knowledge and morality. The study also explores the relevance of these concepts in today's educational system and their practical applications.

Key words: Eastern scholars, pedagogical views, modern education, upbringing of a perfect person, knowledge, morality.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu jarayonda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini chuqur o'rganish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan ilm-ma'rifat, odob-axloq, komil inson tarbiyasi, ustoz va shogird o'rtasidagi munosabat kabi g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy, Ahmad Donish kabi allomalar ilm-fan, axloqiy tarbiya va ijtimoiy adolatni jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ko'rsatganlar. Ularning asarlarida barkamol shaxsni tarbiyalash, yoshlarni bilim olishga rag'batlantirish, ustozga hurmat, ilmning hayotdagi o'rni, insoniylik va axloqiy poklik kabi masalalar chuqur yoritilgan. Shuningdek, Sharq allomalari ta'lim va tarbiyani ajralmas bir butun jarayon sifatida talqin etib, komil insonni tarbiyalash orqali jamiyatni yuksaltirish mumkinligini ta'kidlaganlar. Zamonaviy ta'limda esa bu qarashlar kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va milliy qadriyatlarga tayangan holda barkamol avlodni shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan pedagogik qarashlar bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki yanada dolzarb tus olgan. Hozirgi kunda ta'lim tizimida komil inson tarbiyasi, ma'naviy barkamollik, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ilm-ma'rifatga intilish kabi masalalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi allomalarning pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim jarayonini ilmiy va ma'naviy jihatdan boyituvchi manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ilmga chanqoqligini oshirish, ularni

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, barkamol shaxs qilib tarbiyalash ta'lim tizimining asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosiga tayanish, ularning asarlaridan samarali foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifadir.

Shuningdek, zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyotida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va ijodiy fikrlashni rivojlantirish kabi tamoyillar Sharq allomalari merosidagi g'oyalar bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois mazkur mavzuni o'rganish bugungi ta'lim sifatini oshirish, yosh avlodda ma'naviy-axloqiy immunitetni kuchaytirish va milliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun dolzarbdir.

Asosiy qism

O'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonining ilmiy asoslanganligi, metodik jihatdan puxta tashkil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Maktab davri insonning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan bir qatorda ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, kommunikativ savodxonlik hamda ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik jarayon o'quvchini faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki ularni faol egallovchi, tahlil etuvchi va amaliyotda qo'llovchi shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Bunda o'qituvchining pedagogik mahorati, metodlardan oqilona foydalanishi, fanlararo bog'liqlikni ta'minlashi, o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi va motivatsiyani kuchaytirishi katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsion yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarda bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi. O'quvchilarning intellektual faolligini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni ham beqiyosdir. Mustaqil izlanish, ma'lumotlarni tanlab olish, ularni tahlil qilish va xulosa chiqarishga yo'naltirilgan topshiriqlar ularning fikrlash doirasini kengaytiradi, ijodiy

salohiyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarda axloqiy qadriyatlar, milliy urfodatlar va ma'naviy-ma'rifiy tushunchalarni shakllantirish ham pedagogik jarayonning muhim jihatlaridan biridir. Bu esa nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarni ongli, mas'uliyatli va barkamol shaxs sifatida voyaga etkazishga xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatini tashkillashtirishda jamoaviy ishlash, muloqot madaniyatini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish eng samarali yo'llardan biridir. Chunki bu jarayonlarda o'quvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlarini ko'rsatadi, ijtimoiy tajriba orttiradi va turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi. Shuningdek, pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar shaxsining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish yuqori natijalarga olib keladi. O'quvchilar yoshiga xos psixologik rivojlanish bosqichlarini inobatga olish, ularning ehtiyoj va qiziqishlariga mos topshiriqlarni tanlash, individual yondashuvni ta'minlash zamonaviy ta'limning ustuvor tamoyillaridan biri hisoblanadi. Mavzuni chuqur o'rganishning zarurati, eng avvalo, zamonaviy ta'lim jarayonining ijtimoiy buyurtmasi va jamiyat ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bugungi globallashuv davrida o'quvchilardan nafaqat tayyor bilimlarni egallash, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, ijtimoiy faol bo'lish va o'z bilimini amaliyotda qo'llash talab qilinmoqda. Shu boisdan mavzuni ilmiy asosda tadqiq etish, nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalarining keng joriy etilishi mavzuni chuqur o'rganishni yanada zarur qiladi. Bu jarayon o'quvchilarda faollikni oshirish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy hayotga tayyorlashga xizmat qiladi.

Mavzuni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish orqali nafaqat nazariy bilimlar boyitiladi, balki amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi, o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi oshiriladi. Shu bilan birga, mavzu bo'yicha olib borilgan izlanishlar pedagoglar uchun

metodik qo‘llanma, ta’lim muassasalari uchun tajriba almashish imkoniyati va ta’lim sifatini rivojlantirishning muhim manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Shu sababli mavzuni o‘rganish zarurati, bir tomondan, ilmiy-nazariy asoslarni boyitish, ikkinchi tomondan, amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgandir. Sharq allomalari – Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlarning pedagogik qarashlari o‘z davri uchun ham, bugungi ta’lim tizimi uchun ham beqiyos ahamiyatga ega. Ularning asarlarida inson tabiyasi, ilm-fan, ma’naviyat, axloq, ta’lim-tarbiyaning mazmuni va metodlari chuqur yoritilgan.

1. Sharq allomalarining pedagogik qarashlari

Ilm va ma’rifatning ustuvorligi: Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida bilimli jamiyat va komil inson konsepsiyasini ilgari surgan. Unga ko‘ra, ta’limning asosiy maqsadi – shaxsni mukammal tarbiyalash va jamiyatga foydali qilib voyaga etkazishdir.

Aqliy va axloqiy tarbiya uyg‘unligi: Ibn Sino ta’lim jarayonida sog‘lom turmush tarzi, mehnatsevarlik, axloqiy poklik va ma’naviy etuklikni bir butun holda olib qaragan. Mehnat va hunar o‘rgatish: Beruniy ilmiy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni ham muhim deb bilgan, u mehnatni insonni kamolga etkazuvchi vosita sifatida ta’kidlagan. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar: Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida

tarbiya jarayoni adolat, oqillik, qanoat va to‘g‘rilik tamoyillari asosida qurilishi kerakligi aytilgan.

Adab va axloq tarbiyasi: Alisher Navoiy asarlarida yosh avlodni odobaxloqli, ilmga chanqoq, xalqparvar qilib tarbiyalash masalasi ustuvor o‘rin egallaydi.

2. Zamonaviy ta’limdagi ahamiyati

Bugungi ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim, tarbiyaning integratsiyalashuvi kabi tamoyillar Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari bilan

uzviy bog‘liq. Sharq allomalarining pedagogik qarashlari zamonaviy ta’limda axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ilmiy tafakkurni rivojlantirish, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ularning asarlarida ilgari surilgan “ilm – insonni komillikka etkazadi” g‘oyasi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan, chunki raqamli ta’lim va innovatsiyalar davrida ham ma’naviy-axloqiy tarbiya asosiy ustunlardan biri bo‘lib qolmoqda. Allomalar tomonidan ilgari surilgan adolat, insonparvarlik, halollik, o‘doba tamoyillari zamonaviy demokratik ta’lim tizimining poydevori sifatida qoraladi. Demak, Sharq allomalarining pedagogik qarashlari faqat tarixiy meros emas, balki zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Xulosa

Sharq allomalarining pedagogik qarashlari tarixiy meros sifatida emas, balki zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyoti uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib kabi mutafakkirlarning ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari yoshlarni ilmga chanqoq, axloqan pok, ijtimoiy faol va ma’naviy barkamol inson qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Bugungi kunda raqamli ta’lim, innovatsion pedagogika, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va kompetensiyaviy ta’lim tizimida Sharq allomalarining ilmiy va tarbiyaviy qarashlari bilan uzviy uyg‘unlikni ko‘rish mumkin. Ularning ilgari surgan adolat, insonparvarlik, ilm-ma’rifat va axloqiy tarbiya tamoyillari zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, Sharq allomalarining pedagogik qarashlarini chuqur o‘rganish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish nafaqat yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, balki ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Forobiy A. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1993.
2. Ibn Sino A. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1980.
3. Beruniy A. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1975.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Yozuvchi, 1989.
5. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1983.
6. Jaloliddin Rumi. Masnaviy. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 2001.
7. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – Toshkent: Cho‘lpon, 1991.

8. 2010.	Ochilov M. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti,
-------------	--

9. Qodirov A., Hasanov B. Sharq mutafakkirlari merosida tarbiya masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
10. Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
11. Jalolov J., Axmedov M. Sharq allomalari va ta‘lim-tarbiya masalalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.